



UNIVERSITET XODIMLARINING ILMIY FAOLIYATINI AVTOMATLASHTIRISH SISTEMASINI MILLIY REYTING TIZIMI BILAN BOYITISH

Xudayqulova Mohira Rustamovna

O'zbekiston Milliy universiteti amaliy matematika va intellektual
texnologiyalari fakulteti amaliy matematika yo'nalishi 2-kurs
magistratura talabasi

Email: xudayqulovamohira@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10499616>

ARTICLE INFO

Received: 05th January 2024

Accepted: 12th January 2024

Online: 13th January 2024

KEY WORDS

Quacquarelli Symonds World
University Rankings, Academic
Ranking of World Universities,
Milliy reyting tizimi, xalqaro
reyting, sxema, tizim
metodologiyasi, tahlil
indikatorlari.

ABSTRACT

"Milliy reyting" tizimini xodimlar faoliyatini boshqarish platformasiga kiritish orqali, oliy ta'lim muassalarining bir qator tahliliy natijalarida avtomatlashtirish imkoniyati taqdim etiladi va bu orqali tahlillardagi bir qancha kompleks jarayonlarida inson tomonidan qilinadigan xatoliklar keskin kamayadi va shu bilan birgalikda tahlillarni ixtiyoriy vaqtda vizual ko'rish katta qulaylikni taqdim etadi.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qaroriga asosan oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan so'nggi yillar mobaynida oliy ta'lim muassasalarining "Milliy reytingi" e'lon qilib borilmoqda. Ammo, afsuski bu tizim hali hanuzgacha avtomatlashgani yo'q. Bunda shu paytgacha milliy reyting tizimini (xususan, oliy ta'lim muassasalarining reyting tizimi ham shu jumladan) ovoz berish yo'li orqali shakllantirib kelinmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan agentliklar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish belgilangan. O'tgan davr mobaynida Ta'lim inspeksiyasi tomonidan rivojlangan davlatlar tajribalari chuqur o'rganildi. Xalqaro ekspertlar guruhi jalb qilinib, amaldagi milliy reyting tizimi qayta tahlil qilindi. QS (Quacquarelli Symonds) va THE (Times Higher Education World University Rankings) kabi nufuzli reyting agentliklarining mutaxassislari milliy reyting tizimimiz bilan tanishib chiqdilar va tegishli tavsiyalarini berdilar. Bugungi kunda reyting tuzish metodikasini yanada takomillashtirish bo'yicha hamkorlik ishlari davom etmoqda. Qator tahlillar va izlanishlar



natijasida, O'zbekiston universitetlarining milliy reyting metodologiyasi "THE" xalqaro reyting agentligi tomonidan tan olindi.

Asosiy qism: Mazkur metodologiyani ishlab chiqishda inspeksiya jamoasi tomonidan jahonning eng nufuzli reyting agentliklari tajribalari har tomonlama chuqur tahlil qilingan edi. Shuningdek, joriy etilgan reyting metodologiyasi bo'yicha Elsevier nashriyot uyining regional direktori Aliya Ospanovaning O'zbekistonda OTMlarining ilmiy tadqiqot yo'nalishdagi ko'rsatkichlarini oshirishi bo'yicha bir qancha uchrashuvlar, QS xalqaro reyting agentligining Rossiya va Markaziy Osiyo bo'yicha direktori Zoya Zaitseva ishtirokidagi seminarlar tashkil etilganligi shular jumlasidan.

Yangilangan metodikaga oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari haqida ish beruvchilar bahosi, talabalarning mutaxassislik fanlarini bilish darajasi, professor-o'qituvchilar yaratgan ilmiy maqolalarning "Web of Science" hamda "Scopus" kabi xalqaro bazalardagi ulushi, xalqaro indekslar ma'lumotlari asosida ilmiy nashrlarga iqtiboslar soni, oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot faoliyatining natijadorligi, ta'lim muassasasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit kabi yangi indikatorlar kiritildi.

Umuman olganda, hozirgi kunda bu "Milliy reyting" tizimi ishlab kelmoqda, ammo hali hanuzgacha tizim avtomatlashmagan. Har yili reyting tizimini aniqlashda umumiy tahlillar, so'rovnomalar va bir qator shu kabi ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, o'tgan yillar davomida tizimni shakllantirishda bir necha bosqichlarga bo'lgan holda tahlil qilindi. Buni quyidagi jadvalda batafsilroq tanishib o'tishimiz mumkin.

Oliy ta'lim muassalari reytingini aniqlash sxemasi jadvali

Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash

SXEMASI

Bosqich	Mas'ullar	Chora-tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	Reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida tegishli jadvallar ishlab chiqiladi va tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda oliy ta'lim muassasalariga yetkaziladi.	oliy ta'lim muassasalari faoliyati o'rganilayotgan (reytingi aniqlanayotgan) yilning 20-dekabriga qadar
2-bosqich	Vazirliklar va idoralar hamda oliy ta'lim muassasalari	Reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar asoslovchi hujjatlari bilan birgalikda Davlat inspeksiyasiga taqdim etiladi.	har yili 1-fevralga qadar
3-bosqich	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, sohalar bo'yicha jalb qilinadigan mutaxassis-ekspertlar	Reytingni aniqlashga oid ma'lumotlarning ishonchlilikini ta'minlash maqsadida ular tahlil qilinadi (o'rganib chiqiladi).	har yili 1-aprelga qadar
4-bosqich	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	O'rganilgan ma'lumotlar tanishib chiqish va tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasalariga yuboriladi.	har yili 10-aprelga qadar
5-bosqich	Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari	Reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar tasdiqlangan holda Davlat inspeksiyasiga taqdim etiladi.	har yili 1-mayga qadar



6-bosqich	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari	Reytingni aniqlash jarayonida: 1. Professor-o'qituvchilarning xorijiy til va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilim darajasini aniqlash maqsadida test sinovlari o'tkaziladi. 2. Talabalarining mutaxassislik fanlariga oid bilim darajasini aniqlash maqsadida nazorat ishlari (test sinovlari) va oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatini o'rganish yuzasidan so'rovnoma o'tkaziladi.	har yili may-iyun oylarida
7-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bilimi, malaka va ko'nikmalarini aniqlash maqsadida ish beruvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkaziladi.	har yili 20-iyulga qadar
8-bosqich	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	Reytingni aniqlashga oid to'plangan ma'lumotlar, o'tkazilgan so'rovnomalardan va nazorat ishlari natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarining reyting ballari hisoblanadi.	har yili 20 — 30-iyulda
9-bosqich	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	Hisoblangan reyting ballari asosida oliy ta'lim muassasalarining reytingi tuziladi.	har yili 1-avgustga qadar
10-bosqich	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, ommaviy axborot vositalari	Reyting natijalari Davlat inspeksiyasining veb-saytida e'lon qilinadi va ommaviy axborot vositalarida keng yoritiladi.	har yili keyingi o'quv yili boshlanishidan kechiktirmay

Ko'rib turganimizdek, oliy ta'lim muassasalarida reyting tizimini shakllantirish va aniqlash bir qancha bir biriga uzviy bog'liq va kompleks jarayonlari o'z ichiga oladi. Agar biz tizimni yaxlit sistemaga birlashtirib, doimiy ravishda tizimni o'zi undagi ma'lumotlarga nisbatan bu tahlillarni amalga oshiradigan platforma shakliga keltira olsak, hozirgi vaqt ta'lim sistemasida ancha katta va murakkab texnik vazifalardan birini bajargan bo'lamiz. Bu orqali ixtoyoriy vaqtda ixtoyoriy foydalanuvchi ixtoyoriy tartibdagi reytingni ko'rishi va vizual kuzatishi mumkin bo'ladi. Ayni shu masalani yechish uchun ilmiy ishni bir bobini alohida "Milliy reyting" tizimini avtomatlashtirishga qaratdim. Bu ham o'z navbatida tahlil, mavjud reyting ma'lumotlarini o'rganish va asosida kerakli ma'lumotlar ombori uchun struktura ishlab chiqish va uni texnik jarayonlarini o'z ichiga oladi. Qolaversa, "Milliy reyting" tizimini o'zi bir nechta sohalar va yo'nalishlar bo'yicha reytingni o'zi ichiga oladi, Masalan, universitetlar ichki o'rni (bunda professor o'qituvchilarning soni, ularning tezis, monografiya, maqolalar soni, qaysi xalqaro taniqli jurnalda indekslangani, chop etilgani kabi bir qator xususiyatlari inobatga olingan holda) tahlil etiladi. Bundan tashqari bu o'lchovlarni fakultetlar va undagi kafedralar kesimida, universitetning bitirgan talabalarining ishga joylashuvi kesimida tahlillar ham amalga oshirilishi ko'zda tutilgan

Xulosa: "Milliy reyting tizimini" xodimlar faoliyatini avtomatlashtirish platformasiga qo'shish orqali biz bu tizimni qayta ishlashga, tahrirlash va istalgan vaqtda ma'lumotlarni sinxron tarzda yuritish va vizual tarzda ko'rish imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa o'z navbatida tizimni yuksalishi va kelasi faoliyatida juda ham katta rol o'ynaydi va navbatdagi yutuq tomonlarni oshiradi, eng muhimi foydalanuvchi uchun maksimal oson nuqtaga yetib keladi.



References:

1. lex.uz axborot portali. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy Ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori" (05.04.2022-yil)
2. "The process of automating the rating of Russian universities" (<https://ceur-ws.org/Vol-2407> Oxana N. Romashkova, Ludmila A. Ponomareva, Igor P. Vasilyuk) Rossiyadagi universitetlar reyting tizimining avtomatlashtirilishi haqidagi maqola
3. "The Automatic University: A review of datafication and automation in higher education" maqolasi (<https://www.researchgate.net/publication/343655554> The Automatic University A review of datafication and automation in higher education Ben Williamson, Edinburgh University)
4. "Implementing a mobile app for academic activity management at a university: A case study" by J. Smith in the Journal of Information Technology in Education.
5. "The impact of a mobile application system on university employee productivity" by T.S. Lee in the Journal of Higher Education Management.
6. "QS Stars Ratings" maqolasi (<https://www.topuniversities.com/qs-stars> Top universities)
7. "World University Rankings 2023: methodology" maqolasi (<https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-university-rankings-2023-methodology> "Time Higher Education" xalqaro nashri)
8. oliygoh.uz, tsull.uz, daryo.uz internet web saytlari